

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

ASLANOV SAID KARIMOVICH

BOSHQARUV FAOLIYATINING IJTIMOIIY-FALSAFIY ASPEKTLARI:
TIZIMLI YONDASHUV

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

FALSAFA FANLARI BO`YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on philosophical sciences**

Aslanov Said Karimovich

Boshqaruv faoliyatining ijtimoiy-falsafiy aspektlari:
tizimli yondashuv3

Асланов Саид Каримович

Социально-философские аспекты управленческой деятельности:
системный подход.....23

Aslanov Said Karimovich

Social and philosophical aspects of management activity:
a systemic approach45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of works published.....49

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

ASLANOV SAID KARIMOVICH

BOSHQARUV FAOLIYATINING IJTIMOY-FALSAFIY
ASPEKTLARI: TIZIMLI YONDASHUV

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Fal1369 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Navoiy davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Qaxxorova Matluba Mannofovna

falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xuseynova Abira Amanovna

falsafa fanlari doktori, professor

Shirinov Anvar Qanoatovich

falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil "5" sentyabr soat 12⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (705 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "22" avgust kuni tarqatildi.

(2025 yil "22" avgust dagi 28 raqamli reyestr bayonnomasi.)



Namozov B.B.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

Sharipov A.Z.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

Safarova N.O.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda rivojlanishga to'siq bo'layotgan siyosiy ziddiyatlarning kuchayishi, iqlim o'zgarishi, tabiiy va inson resurslarining tanqisligi, kibertahdidlar kabi global muammolar barqaror kelajak uchun xizmat ko'rsatish jarayonlarini jadallashtirishni, taraqqiyotda muhim o'rin tutadigan boshqaruv va xizmatlar tizimini takomillashtirishni, uni zamon bilan hamnafas holda yangi bosqichga ko'tarish, kadrlar salohiyati va ularning faoliyat samaradorligini oshirishni talab etmoqda. Ayniqsa, dunyo iqtisodiy tuzilmasi, demokratik davlat va fuqarolik jamiyatiga moslashuv jarayonlari sharoitida ijtimoiy boshqaruvni shakllantirish esa transformatsiya ta'sirida belgilab qo'yilgan xatti-harakatlar meyorlari va modellarini, tamoyillar bilan o'zgartirish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun boshqaruv funktsiyalarini taqsimlash, uning tarkibiy xususiyatlari, tizimli mohiyati, funksional maqomini ijtimoiy-falsafiy asoslab berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fanida va ilg'or ilmiy markazlarda boshqaruv faoliyati va uni takomillashtirish, transformatsiya jarayonida yuzaga keluvchi turli qarama-qarshiliklarni bartaraf etish masalalariga, boshqaruv innovatsiyalariga bag'ishlangan muammolarga oid amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ijtimoiy hayotni barqaror rivojlantirish, jamiyat a'zolari manfaatlarini muvofiqlashtirish, resurslardan oqilona foydalanish, ijtimoiy adolat va erkinlikni ta'minlash kabi muhim vazifalar boshqaruvning mazmunida mujassam topadi. Shu bois tizimli yondashuv orqali boshqaruvning ontologik, aksiologik, gnoseologik, metodologik va kommunikativ o'lchovlarini aniqlash, strategik qarorlarni qabul qilishda inson manfaatlari, ijtimoiy adolat, barqarorlik va ekologik muvozanat kabi omillarni inobatga olish, boshqaruvni optimallashtirish va samaradorlik darajasini oshirishning ilmiy-amaliy asoslarini tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

O'zbekistonda olib borilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar, strategik yangilanishlar, boshqaruvning zamonaviy tamoyillari va raqamli transformatsiyasi, inson omiliga e'tiborning ortishi davlat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ishonchni mustahkamlashga, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va boshqaruvning demokratik tamoyillarini chuqurlashtirishga xizmat qilmoqda. "Bugungi kunda davlat boshqaruvida raqamli transformatsiyani rag'batlantirish, davlat xizmatlarini ko'rsatishning innovatsion yechimlarini qo'llash, davlat sektori institutlarida samaradorlikni keskin oshirish, liderlik boshqaruv uslubini rivojlantirish, uzluksiz ta'lim olishni kengaytirish va bo'lajak rahbarlar uchun zarur ko'nikmalarni belgilash bo'yicha ilg'or tajriba almashish har qachongidan ham dolzarb ahamiyatga egadir"¹. Ayniqsa, boshqaruvga oid islohotlarning ijtimoiy ongda boshqaruv madaniyatini shakllantirishga, inson va boshqaruv o'rtasidagi munosabatlarni yangicha talqin qilishga ta'sirini, ijtimoiy amaliyotda boshqaruv bo'yicha o'zgarishlar dinamikasida ham tarkibiy jihatdan, ham tashkil etish usuli jihatidan strategik ahamiyat kasb etuvchi ijtimoiy texnologiyalarni maqbullashtirish mezonlarini ochib berish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹ Prezident Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkilotining Davlat xizmati bo'yicha Forumi ishtirokchilariga tabrigi. 23.06.2025. // <https://president.uz/oz/lists/view/8252> .

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022 yil 6 iyuldagi PF-307-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 21-dekabrdagi PF-269-son “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari, 2019-yil 9-dekabrdagi PQ-4546-son “Byurokratik to‘siqlarni yanada qisqartirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyatiga zamonaviy boshqaruv tamoyillarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 11-maydagi PQ-240-son “Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, 2017 yil 19-sentabrdagi 745-son “Boshqaruv kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 28-noyabrdagi 959-son “Davlat boshqaruvida ilg‘or davlat menejmenti va “aqlli” boshqaruv prinsiplarini bosqichma-bosqich joriy etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021 yil 18 yanvardagi 23-son “Yoshlarga oid davlat siyosatining 2025 yilgacha mo‘ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ijtimoiy boshqaruv va boshqaruv faoliyati muammosi faylasuflar, sotsiologlar, iqtisodchilar e’tiborini doimo o‘ziga jalb qilib kelgan. Bu muammo bilan bog‘liq qator masalalar, jumladan Aflotun va Arastu asarlarida siyosiy boshqaruvning ba’zi elementlari, xususiyatlari ajratib ko‘rsatilgan. Abu Nasr Forobiy, Nizomulmulk, Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi mutafakkirlar asarlarida boshqaruv faoliyatining mohiyati va amaliy ahamiyati asoslab berilgan. Boshqaruvning tadqiqot oqimi sifatida paydo bo‘lishiga A.Prigojin, O.Kirkeby, A.Fayol, R.Frensis, M.Lackman, H.Stevenson Howard, R.Bleyk, D.Louton, S.Hardi, T.Keiningham, T.Vavra, L.Askoy, B.L.Allen, E.Brech, L.Gyurik, Dj.Muni, A.Riley o‘z hissalarini qo‘shganlar. Bu borada L.Urvik, M.Follett va R.Shelton asarlarini ham ta’kidlab o‘tish joizdir².

²Платон. Законы. — М.: Мысль, 1999.—С.832.; Аристотель. Сочинение в 4-х т. (Перевод). Том 3. — М.:Мысль, 1981.—С.613.; Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. —Т.: Халқ мероси, 1993. —В.167.; Низомулмулк. Сиёсатнома. —Т.: Янги аср авлоди, 2008.—В.11.; Темур тузуқлари. —Т.: Ғафур Ғулом нашриёти,

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlarining boshqaruv faoliyatiga yangicha yondashuvlarga bag'ishlangan tadqiqotlari tizimli yondashuvning rivojlanishi va boshqaruv qarorlarini asoslash, qabul qilish bilan bog'liq holda shakllangan bo'lib, ular A.Zaysev, V.Ivanov, V.Patrushev, Ye.Ksenchuk, V.Makarevich kabi olimlarning ishlarida o'z aksini topgan. Tarmoq raqamli texnologiyalari vositalarini boshqarish jarayonining ijtimoiy-falsafiy tahlili S.Zaborovskaya, D.Kruglov, O.Reznikova, I.Sigankova, K.Staroverova, Yu.Masalova tomonidan amalga oshirilgan³.

O'zbekistonda ham boshqaruv faoliyati yo'nalishlarini tahlil qilish va qaror qabul qilishda tizimli yondashuvga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev asarlarida boshqaruv faoliyatida tizimli yondashuvning mohiyati yoritib berilgan⁴. Shuningdek, N.Jo'raev, Q.Nazarov, I.Ergashov, A.Begmatov, M.Qahhorova, A.Xuseynova, N.Safarova, R.Maxmudov, B.Aliev, S.Choriev, M.Xadjieva, Sh.Xolmo'minov, G.Abduraxmonova, N.Nishonova, S.Norqulov, B.Turdiyevning ilmiy asarlarida boshqaruv faoliyatining mohiyati va inson resurslarini boshqarishning ma'naviy xususiyatlari tahlil qilingan. D.Raximova, N.Zakirovalar zamonaviy jamiyatda boshqaruv faoliyatining nazariy va amaliy xususiyatlarini ilmiy jihatdan asoslab berganlar⁵.

1996. –Б.66-67.; Алишер Навоий. Садди Искандарий. –Т.: Фафур Фулом, 1991.–Б.39.; Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Т.: Yangi asr avlodi, 2024.–Б.560. Пригожин А.И. Социологические проблемы управленческих решений. — М.: Знание, 1984.–С.87; Kirkeby O.F. Management philosophy: a radical-normative perspective. – Springer.: Heidelberg, 2000.–P.57.; Hardi C. Forecasting Business Condition. –New-York, 1930.– P. 55.; Wall-ace W. Business Forecasting and Ist Application. –London, 1932.–P.45.; Файоль З.А. Общее и промышленное управление. – М.,1924 –С.28-29.; Роджерс Френсис Дж. ИБМ. Взгляд изнутри: человек-фирма-маркетинг.// Пер. с англ. -М.: Прогресс, 1990.–С.9-10.; Lackman M. Controlling the Project Development Cycle. Part II: Profile ofa Succesfull Project-Manager // IEEE Eng. Manag. Rev. –USA.–1987.– №3–P.23.; Handy L. Developing the High Flier - a Challenge for the Future //1. Eur Ind. Train.–Eng.– 1987. – №8.–P.65.; Stevenson Howard H., Sahlman William A. Importance of Entrepreneurship in Economic Development. – USA.: Lexington Books, 1986.–P.18-25.; Р.Блейк, Д. Лоутон. Научные методы управления. -Киев: Наукова Думка, 1990.– С.78.; Keiningham T.L., Vavra T.G., Askoy L. Managing through rose-coloured glasses // Sloan Management Review. Vol. 48, № 1, Fall 2006.–P.45.

³Зайцев А.К. Внедрение социальных технологий в практику управления // Социальное развитие предприятия и работа с кадрами. -М., 1989.–С.34.; Иванов В.Н., Патрушев В.И. Инновационные социальные технологии государственного и муниципального управления. -М., 2001.; Ксенчук Е., Киянова М. Технология успеха. - М., 1993.–С.98.; Макаревич В.Н. Игровые методы в социологии: теория и алгоритмы. -М., 1994.–С.46.; Заборовская С. Г. Кадровый менеджмент на государственной гражданской и муниципальной службе. —М.: Юрайт. 2024. –С.181.; Круглов Д. В., Резникова О.С., Цыганкова И. В. Цифровизация управления персоналом. —М.: Юрайт. 2023.– 103.; Староверова К. О. Технологии управления персоналом в государственных структурах. —М.: Юрайт. 2024.– С.178.; Масалова Ю. А. Инновационный менеджмент в управлении персоналом. — М.: Юрайт. 2023. – С.192.

⁴Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –Т.: O'zbekiston, 2017. – В.104.; Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. – Т.: O'zbekiston, 2024.–С.455.

⁵ Жураев Н. Призыв к цивилизации. Штрихи к политическому портрету Президента Республики Узбекистана Ш.М.Мирзиёева. Монография. –Т.: Palmarium Academic Publishing, 2021–С. 192.; Назаров Қ., Эргашов И. ва бошқалар. Миллий ғоя ва раҳбар масъулияти. – Т.: Фафур Фулом, 2007. –Б.599., Бегматов А. Ўзбекистонда раҳбар кадрлар тайёрлашнинг технологик тизими. Раҳбар ва ходим (тўплам). –Т.: Академия, 1998. –Б.124.; Қаҳҳорова М. Жамиятда маънавий ахлокий муҳит:муаммо ва ечимлар. Фалс. фан. док. ... дис. –Тошкент: ЎЗМУ, 2012.–С.280.; Xuseynova A. Inson kapitalini o'rganishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari // Ta'lim va innovation tadqiqotlar. – Buxoro , 2022.– № 8.–В. 294-299.; Safarova N.O. Nevv Research Approach: Cognitive Abilities of a person.// International Journal of Healtch Sciences. - Philadelphia. - USA. – 2013.- №1 - P.62-63.; Махмудов Р.М. Шахсининг ҳуқуқий маданиятлашуви: назария ва методика. –Т.: Ўзбекистон, 1998. – Б.69.; Холмўминов Ш.Р. Маҳаллий бошқарув кадрлари менежменти. –Т.: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси. –

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar tasnifi ularda boshqaruv fenomenining tarixiy, siyosiy, ma'naviy asoslarining ayrim jihatlari tahlil etilgani bilan belgilanadi. Lekin ularda boshqaruv faoliyatiga tizimli yondashuv tamoyillari ko'rib chiqilmaganligi, bu esa muammoni kompleks tarzda, bir necha usul va yondashuvlardan foydalangan holda ko'rib chiqish zaruratini namoyon etadi. Shuni hisobga olgan holda, mazkur dissertatsiyada boshqaruv faoliyatidagi jarayonlar va hodisalarning tizimli mohiyatini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq etishga alohida e'tibor qaratilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Navoiy davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq II band "Barkamol inson shaxsini shakllantirish va uning ijtimoiy-pedagogik mohiyati" (2022-2026 yy.) tadqiqot yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tizimli yondashuv asosida boshqaruv faoliyatining ijtimoiy-falsafiy aspektlari va jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

boshqaruvning mohiyati, ijtimoiy zarurati va tarixiy-falsafiy shakllanish bosqichlarini tadqiq etish;

tizimli yondashuvning metodologik imkoniyatlari asosida boshqaruv faoliyatining zamonaviy funksiyalarini qiyosiy tahlil qilish;

boshqaruv modellarining namoyon bo'lish shakllari va mezonlarini tahlil qilish;

boshqaruv faoliyatini rivojlantirish tipologiyasi hamda xodimlarni boshqarish tizimining ijtimoiy aspektlarini ochib berish;

boshqaruv amaliyoti va qaror qabul qilishning o'zaro aloqadorligini hamda qaror qabul qilish jarayonining ijtimoiy xususiyatlarini asoslash;

zamonaviy jamiyatda samarali boshqaruvni shakllantirishga oid konseptual takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida jamiyatdagi boshqaruv tizimi va faoliyati tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini boshqaruv- aspektlari, bu faoliyatining ijtimoiy-falsafiy jarayon sifatidagi tamoyillari, mexanizmlari va ularning inson, jamiyat va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda tutgan o'rnini tadqiq etish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tizimli-funksional yondashuv, kontent-tahlil, retrospektiv, dialektik, sinergetik, qiyosiy tahlil, komparativistika kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

T.: 2004.–Б. 39-51; Абдурахмонова Г.Қ. Инсон ресурсларини бошқариш. –Т.: Фан, 2021. –Б.692., Нишоновна Н. Давлат бошқарув тизимида хотин қизларнинг ижтимоий-сиёсий фаолияти (фалсафий таҳлил) – Т.: Фан, 2013. –Б.188.; Норқулов С. Фуқаролик жамияти ва ижтимоий онда трансформация жараёнлари. –Т.: Наврўз, 2015. – Б.182.; Turdiyev B. O'zbekistonda demokratik jamiyat rivojlanishida ma'naviy yangilanishlar strategiyasi. Monografiya. –Т.: Lesson press, 2023.– В.128.; Рахимова Д.Н. Управление процессами развития и использования трудового потенциала Узбекистана в условиях осуществления радикальных рыночных реформ: Монография. - Т.: ТашГТУ им. А.Р. Бериуни, 2000.–Б.120.; Закирова Н.К. Социально-трудовые отношения: международные и национальные аспекты. - Т.: Фан, 2008. – С.88.

boshqaruv funktsiyalarining ijtimoiy yaxlitlikni saqlash, faoliyatga qarab taqsimlash kabi tarkibiy xususiyatlari va boshqaruv faoliyatining tizimlilik, funksionallik, qadriyatga asoslanganlik, ijtimoiy mas'uliyat kabi tamoyillari hamda boshqaruv subektlari va obektlari o'rtasidagi muvozanatni uyg'unlashtirish, ijtimoiy tizimlar o'rtasidagi integratsiyani ta'minlash tamoyillari ochib berilgan;

jamiyatda boshqaruvning funksional maqomi ijtimoiy shartlanganlik (o'z-o'zini boshqarish, barqaror rivojlantirish), moslashuvchanlik (vaziyatga mos, subyekt-obyekt munosabati) kabi prinsiplarga tayanishi, ijtimoiy zaruriyatlar majmuasi orqali yaxlitlikni ta'minlash, subektiv va obektiv omillarni uyg'unlashtirish, ijtimoiy o'zgarishlarga javob bera oladigan dinamik tizim sifatida xususiyatlari jamiyatda barqarorlik, muvozanat va taraqqiyot mezonlariga xizmat qilishi asoslangan;

boshqaruv strukturasidagi analitik vositalar, sun'iy intellekt va resurslar raqamli boshqaruv modelini shakllantirishda va optimallashtirishda tipologik mezon ekanligi, faoliyat samaradorligini baholash indikatori sifatida xususiyat kasb etishi hamda ijtimoiy manfaat mezonlari asosida boshqaruv samaradorligini oshirish paradigmasining yangilanishidagi ahamiyati aniqlashtirilgan;

xodimlarni boshqarish tizimi modellarining intellektual parametrlari (analitik fikrlash, o'z-o'zini boshqarish), ijtimoiy-texnologik asoslari (feedback, KPI, HRM platformalar, AI-reyting) va boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida shaxsga yo'naltirilganlik, intellektual sarmoyani qo'llab-quvvatlash, tezkor va aniq natijadorlik tamoyillari inson kapitalini rivojlantirish va boshqaruv faoliyatini maqbullashtirish mezonini sifatida isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

boshqaruvning tabiatdagi o'z-o'zini tartibga solish tizimlari (biologik, fizik, kimyoviy, ijtimoiy) bilan konseptual bog'liqlik, universal determinatsiya kabi qonuniyatlari va ijtimoiy boshqaruvning real voqelik bilan uyg'unlikdagi xususiyatlari metaparadigmalar hodisa emas, balki moddiy va ma'naviy tartibning umumfalsafiy konsepti sifatida asoslangan;

boshqaruv tizimida muvofiqlashtirish, tartibga solish, kelishtirish o'zini o'zi boshqarish shaklida namoyon bo'lishi, funksional ziddiyatlarni kamaytirish, o'z-o'zini tartibga solish, sun'iy byurokratik nazoratdan tabiiy-muvozanatga asoslangan yondashuvga o'tish imkoniyatlari barqarorlik indikatorlari va resurslarni muvofiqlashtirishda muhim vosita ekanligi ochib berilgan;

boshqaruv faoliyatining funksional komponentlari (rejalashtirish, tashkil etish, nazorat, baholash), kompleks mexanizmlari (ma'muriy, iqtisodiy, axloqiy, huquqiy, siyosiy, iqtisodiy-matematik) boshqaruvda funksional soddalashtirish va ongli boshqaruvga o'tish imkoniyatini berishi hamda intellektual, fazaviy va integratsion asosda tashkil etishga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma'lumotlarga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab shiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo'yicha

berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati unda keltirilgan ilmiy nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan boshqaruv faoliyatini maqbullashtirish, uning tizimli mohiyati va xususiyatlari boshqaruv funksiyalarini taqsimlash usuli, markaziy boshqaruv va obektning o'zini o'zi boshqarishi o'rtasidagi nisbat, ijtimoiy korrelyatsiya va tartibga solishning stixiyali va ongli maqsadli shakllarini tadqiq etishga qaratilgan tadqiqot ishlarida nazariy-metodologik asos sifatida, shuningdek jamiyatni boshqarishdagi axloqiy tamoyillar, qadriyatlar va adolat tushunchalariga asoslangan yondashuvni ishlab chiqish orqali ijtimoiy barqarorlik strategiyasini nazariy jihatdan boyitishda, boshqaruvga oid o'quv dasturlarini takomillashtirishda ilmiy asos sifatida, tahlil markazlari uchun ijtimoiy boshqaruvdagi ma'naviy mezonlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati inson omiliga asoslangan liderlik konsepsiyasini, strategik boshqaruv qarorlarini inson qadri, ijtimoiy adolat, erkinlik va mas'uliyat mezonlari asosida ishlab chiqishda, demokratik boshqaruv tizimini mustahkamlashda, Ma'naviyat va ma'rifat markazlari, mahallalarning jamiyat bilan muloqot, ishonch, qadriyatlar va axloqiy meyorlarni tiklashga doir targ'ibot va tashviqot ishlarida, tashkilotlarda boshqaruv faoliyati konsepsiyasini ishlab chiqishda va maxsus kurslarni o'qishda gumanitar yondashuvlar asosida insonparvar yetakchilarni shakllantirishning potensial imkoniyatlarini rivojlantirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi. Boshqaruv faoliyatining ijtimoiy-falsafiy aspektlarini tizimli yondashuvlar asosida tadqiq etish jarayonida olingan ilmiy natijalar asosida:

boshqaruv funktsiyalarining ijtimoiy yaxlitlikni saqlash, faoliyatga qarab taqsimlash kabi tarkibiy xususiyatlari va boshqaruv faoliyatining tizimlilik, funksionallik, qadriyatga asoslanganlik, ijtimoiy mas'uliyat kabi tamoyillari hamda boshqaruv subektlari va obektlari o'rtasidagi muvozanatni uyg'unlashtirish, ijtimoiy tizimlar o'rtasidagi integratsiyani ta'minlash tamoyillariga oid tahlillar, ilmiy-nazariy xulosalar va taklif-tavsiyalardan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan IL-662204237-son "Xotin-qizlarda liderlik ko'nikmalari shakllanishi va rivojlanishining ilmiy-amaliy asoslari" (2023-2024 yy) amaliy loyihada belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining 2025-yil 29-maydagi 04-6136-son ma'lumotnomasi). Natijada, boshqaruv faoliyati jarayonida o'z-o'zini takomillashtirishga ko'maklashuvchi intellektual parametrlarni ochib berishga, personal boshqaruv modelining samaradorlik darajasini oshirishga metodologik asos sifatida xizmat qilgan;

jamiyatda boshqaruvning funksional maqomi ijtimoiy shartlanganlik (o'z-o'zini boshqarish, barqaror rivojlantirish), moslashuvchanlik (vaziyatga mos, subyekt-obyekt munosabati) kabi prinsiplarga tayanishi, ijtimoiy zaruriyatlar majmuasi orqali yaxlitlikni ta'minlash, subyektiv va obektiv omillarni

uyg'unlashtirish, ijtimoiy o'zgarishlarga javob bera oladigan dinamik tizim sifatida xususiyatlari jamiyatda barqarorlik, muvozanat va taraqqiyot mezonlariga xizmat qilishiga doir umumlashmalar va xulosalardan Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2024-yil Amaliy loyiha obyektidagi masalalarni ilmiy metodologik va muammoli tahlillarni amalga oshirish faoliyatida foydalanilgan (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2025-yil 24-maydagi 02/257-son ma'lumotnomasi) Natijada, pragmatik tahlillarni amalga oshirishga, tadqiqotlarning mazmuni va ilmiy saviyasini takomillashuviga xizmat qilgan;

boshqaruv strukturasidagi analitik vositalar, sun'iy intellekt va resurslar raqamli boshqaruv modelini shakllantirishda va optimallashtirishda tipologik mezon ekanligi, faoliyat samaradorligini baholash indikatori sifatida xususiyat kasb etishi hamda ijtimoiy manfaat mezonlari asosida boshqaruv samaradorligini oshirish paradigmasining yangilanishidagi ahamiyatiga doir ilmiy yangiliklar va takliflardan "Milliy tiklanish" demokratik partiyasining 2025-2029-yillarga mo'ljallangan saylovoldi dasturi 5.1. Davlat va jamoat tashkilotlari boshqaruvini takomillashtirish hamda 5.1.1. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati samaradorligini oshirish yo'nalishlarida belgilangan vazifalarni bajarishda, o'quvlar va mafkuraviy targ'ibot ishlarini olib borishda foydalanilgan ("Milliy tiklanish" demokratik partiyasi Markaziy Kengashining 2025-yil 21-maydagi 02/02-48-son ma'lumotnomasi). Natijada, saylovoldi dasturining davlat va jamoat tashkilotlari boshqaruvini takomillashtirish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

xodimlarni boshqarish tizimi modellarining intellektual parametrlari (analitik fikrlash, o'z-o'zini boshqarish), ijtimoiy-texnologik asoslari (feedback, KPI, HRM platformalar, AI-reyting) va boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida shaxsga yo'naltirilganlik, intellektual sarmoyani qo'llab-quvvatlash, tezkor va aniq natijadorlik tamoyillariga oid ilmiy-nazariy tahlillar, taklif va tavsiyalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining faoliyatida, jumladan, 2025-yil uchun chora-tadbirlar dasturining II yo'nalishida belgilangan "Madaniy-ma'rifiy sohadagi ishlar" 41-bandi hokimlarning mas'uliyatini oshirish, tuman va shaharlarda Ma'naviyat va ma'rifat maskanlari ishga tushirish hamda, hududlardagi 4 ta sektorga qo'shimcha ravishda ma'naviyat sektorlari tashkil etishda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2025-yil 20-maydagi 10/291-son ma'lumotnomasi). Natijada, boshqaruv faoliyatini o'z-o'zini takomillashtirishga, boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida ijtimoiy texnologiyalarni qo'llash samaradorligining nazariy asoslarini ishlab chiqish hamda boshqaruv faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini rivojlanishining ijtimoiy-falsafiy jihatlarini tahlil etishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining arrobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining

dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola (4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya umumiy hajmi 145 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti, tadqiqotda qo'llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Boshqaruv faoliyatini tadqiq etishning nazariy-metodologik masalalari”** deb nomlangan birinchi bobida boshqaruvning ijtimoiy-falsafiy aspektlari, bu faoliyatining mohiyati, tarkibiy elementlari va funksional xususiyatlari, zamonaviy jamiyatda menejmentning kognitiv va ijtimoiy roli to'g'risida mulohazalar tizimi tahlil etilgan.

Faoliyatning turli xillari, masalan, ishlab chiqarish faoliyati, ilmiy faoliyat, siyosiy faoliyat va shunga mos ravishda boshqaruv faoliyati mavjud. O'z mohiyatiga ko'ra boshqaruv mehnatning o'ziga xos turi bo'lib, ijtimoiy xususiyatlar sirasiga kiradi. Biroq boshqaruv sof ijtimoiy xususiyatmi yoki u har qanday tabiatga ega bo'lgan yaxlit tizimlarning umumiy xususiyati bo'lib chiqadimi, degan muammo bo'yicha turlicha qarashlar mavjud. Tizimlar nazariyasi va kibernetikaning rivojlanishi tufayli murakkab tizimlarda tartibga solish va boshqarishning bir qator umumiy qonuniyatlarini ochib berilgan. Ammo, shu bilan birga, mantiqiy qarama-qarshiliklar ham seziladi. Masalan, M.Pittnerning fikricha: “Boshqaruvga o'xshash va har qanday tabiatdagi tizimlarga xos bo'lgan umumiy narsa - bu tartibga solishdir”⁶. Tizimga ta'sir ko'rsatuvchi va obyektiv qonuniyatlar bilan shartlangan ichki va tashqi ta'sirlarning to'liq spektri nihoyatda xilma-xildir; tizimning bu ta'sirlar oqimini o'z mavjudligini saqlab qolish va maqbul ishlashini ta'minlash uchun yo'naltirish qobiliyati, bizning fikrimizcha, uning tartibga solish xususiyatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqotchi tahlillarga tayangan holda, boshqaruvning ijtimoiy-falsafiy aspektlari sifatida tartibga solishning xususiyati va darajasi tizimning o'ziga xos tashkiliy tuzilishiga bog'liq degan xulosaga kelgan. Tartib – bu tizim elementlarining ma'lum bir fazoviy vaqt holatini bildiruvchi kategoriyadir⁷. Tizimning turi va ko'rinishiga qarab, tartibga solish ko'rinishlari va turlarini farqlaymiz. Bir tomondan, bu noorganik tizimlarda amalga oshiriladigan tartibga

⁶ Питтнер М. Управление как социальное явление // Вопросы философии. – Москва, 1981. – № 12. – С.86-94.

⁷ Файоль А., Эмерсон Г., Тейлор Ф. Управление - это наука и искусство.// Пер. с англ. -М., 1992–С.110.

solish bo'lib, u tizimning inert komponentlari o'rtasidagi munosabatlarga ta'sir ko'rsatishning oddiy shakllari sifatida namoyon bo'ladi, boshqa tomondan, bu organik tizimlardagi tartibga solish bo'lib, uni biz tartibga solishning yanada yuqori turi deb hisoblaymiz. Shuningdek, biologik va ijtimoiy tartibga solishni farqlash ham qabul qilingan.

Boshqaruv faoliyatining tizimli mohiyati, eng avvalo, boshqaruv tizimi va boshqaruv ob'ektini boshqarishni tashkil etish usullarida namoyon bo'ladi. Bu mohiyat A.I.Prigojinning tashkilotlarning maqsadlari haqidagi mulohazalarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Mulohazalarning yo'nalishi quyidagicha: "Maqsad boshqaruvning (va umuman - borliqning) eng tashvishli va dolzarb kategoriyasidir. Maqsad qo'yishni tushunishga har xil aniqliklar va illyuziyalar juda to'sqinlik qiladi. Tashkilotning maqsadli tuzilmasi o'zining xilma-xilligi bilan noyobdir"⁸. Darhaqiqat, "tartibga solish" "boshqaruv"dan ko'ra ancha kengroq ma'noni anglatadi. Biroq, tushunchalarni shakllantirish mantig'i nuqtai nazaridan, "tartibga solish" atamasi yaxlit tizimlarning ichki va tashqi harakatlarini tartibga solish va muvofiqlashtirish bilan bog'liq bo'lgan umumiylikni belgilash uchun mos kelmaydi. Shu o'rinda muvofiqlashtirish deb ataydigan tushuncha ko'proq to'g'ri keladi.

Dissertasiyada boshqaruv va umuman boshqaruv faoliyatining mazmuni yangilanishi zarurati asoslanib, inson faoliyati tahdid omiliga aylangani va global tizimda sivilizatsiya rivojlanishining "xavfsizligi"ni kafolatlaydigan o'zini o'zi tartibga solish mexanizmlarining mavjud emasligi qayd etilgan. Global ijtimoiy tizimning amal qilish mexanizmlariga zarur o'zgartirishlar kiritilishi lozim. Buning ortida bir qator masalalarni, jumladan, boshqaruv faoliyati qanday bo'lishi kerak, degan masalani ham ko'rish mumkin. Tizimli boshqaruv faoliyati ma'lum bir tizim sifatida amal qiladi. Shu munosabat bilan ta'kidlash joizki, nazariya va amaliyotda boshqaruv faoliyati tushunchasi ko'pincha boshqaruv mehnatini qo'llash yoki rahbar organlar va shaxslar majmuasining maqsadli tashkiliy ta'sirlarini amalga oshirish sohasi ma'nosida qo'llaniladi. Bu ma'lum darajada boshqaruv mehnati va boshqaruv faoliyati tushunchalarini o'zaro tenglashtirishga olib keladi. Boshqaruv faoliyati tushunchasi esa kengroq bo'lib, boshqaruv subyekti va obyekti munosabatlarining butun doirasini qamrab oladi; ma'no yuklamasi ham boshqaruv subyektiga, ham obyektiga, shuningdek, boshqaruv usullari, uslublari, metodlari va vositalariga qaratilgan⁹.

Tadqiqotda yuqoridagi tahlillar asosida boshqaruv faoliyati va unga aloqador kategoriyalarga ta'rif berilgan: *Boshqaruv faoliyati* o'z mohiyatiga ko'ra murakkab ijtimoiy tizim bo'lib, turli ijtimoiy o'lchamlarning tarkibiy qismlarini o'z ichiga oladi. Ushbu tizimning substansional asosini sub'ekt, boshqaruv ob'ekti va boshqaruv vositalari kabi tarkibiy qismlar tashkil etadi. *Boshqaruv elementlari* bevosita boshqaruv sub'ekti tomonidan amalga oshiriladi, u jamiyatda kechayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa jarayonlarga maqsadli tashkiliy ta'sir

⁸ Пригожин А.И. Цели организаций: стереотипы и проблемы // Общественные науки и современность. – Москва, 2001, – № 2. – С.5-19.

⁹ Закирова Н.К. Социально-трудовые отношения: международные и национальные аспекты. - Т.: Фан, 2008. – С.88.

ko'rsatadi; ierarxik pog'onalarning turli darajalarida bu jarayonlar bevosita yoki bilvosita tartibga solinishi mumkin. *Boshqaruv faoliyati vazifalari* alohida shaxslar yoki o'z faoliyatini har xil turdagi ishlarni taqsimlash va birlashtirish asosida amalga oshiruvchi maxsus boshqaruv idoralari tomonidan bajarilishi mumkin. *Zamonaviy sharoitlarda boshqaruv*, qoida tariqasida, maxsus raqamli texnologiyalar bilan amalga oshiriladi, ularning soni va tuzilishi ish hajmi va boshqaruv faoliyatining o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq. Boshqaruv va o'z-o'zini boshqarish bevosita yoki bilvosita jamiyatning barcha tarkibiy tuzilmalarida mavjud bo'lganligi sababli, aslida, boshqaruv va o'z-o'zini boshqarish sub'ektlari sifatida shaxs, ijtimoiy guruh, jamoa, ijtimoiy jamoalar va butun jamiyat ishtirok etadi.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, tashkiliy nazorat – bu boshqaruv subektlari tomonidan tashkilotning maqsad, reja va meyoriy parametrlar bilan muvofiqligini ta'minlovchi refleksiv-regulyativ jarayondir. Ilmiy tadqiqotlarda u boshqaruv paradigmasining funksional modeli sifatida talqin qilinadi va tashkiliy tizimlarga metodologik qo'llash imkoniyati bilan asoslanadi. Hozirgi kunga qadar nazorat paradigmasining munosabatlarni boshqarish vazifasiga, xususan, shaxslar, guruhlar, jamoalar va tashkilotlarning psixik faoliyati jarayonlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan liderlik va motivatsiya vazifasiga qo'llanilishi masalasi ochiq qolmoqda. Bu vazifalarni hal qilish amaliyotda qaror qabul qiluvchi shaxslarning xatti-harakatlarini boshqarish, masalan, ma'muriy ta'sir ko'rsatish yoki moddiy va ijtimoiy rag'batlantirishdan iborat deb hisoblanadi.

Dissertasiyaning ikkinchi bobi **“Boshqaruv faoliyatining modellari va ijtimoiy-falsafiy aspektlari”** deb nomlanib, mazkur bobda ijtimoiy boshqaruvning tizimli mohiyati, boshqaruvga oid asosiy modellarning namoyon bo'lish shakllari va ijtimoiy-falsafiy jihatlarini hamda bu faoliyatni rivojlantirishning ijtimoiy aspektlari ochib berilgan.

Ijtimoiy boshqaruvning bir nechta darajalarini ajratib ko'rsatish mumkin: yuqori daraja - davlat tomonidan, xususiy (katta tizim - mintaq, tarmoq), yanada xususiy (o'rta tizim - ijodiy uyushma, korxonalar birlashmasi), quyi (kichik tizimga rahbarlik; bu yerda boshqaruv subyekti, birinchi navbatda, tashkiliy va tarbiyaviy vazifalarni bajaradi)¹⁰.

Tadqiqotda tizim sifatida tashkilot darajasidagi ijtimoiy boshqaruv tahlil etilgan. Ijtimoiy boshqaruv ijtimoiy tizimga uning faoliyatini optimallashtirish maqsadida ta'sir ko'rsatish sifatida qoraladi. Gumanitar texnologiya sifatida uning asosiy vazifasi jamoani shakllantirish, asosiy elementlari esa kadrlar siyosati, xodimlarning malakasi va ijtimoiy harakatchanligini oshirishni ta'minlash, xodimlarni rag'batlantirish va motivatsiyalash, aloqa va qayta aloqani rivojlantirish, nizolarni bartaraf etish hisoblanadi. Ijtimoiy boshqaruv o'z ichiga rahbarlik va yetakchilik jarayonlarini; tashkilotlar, guruhlar va alohida shaxslarning ijtimoiy tizimlarni rivojlantirish yoki barqarorlashtirishga, ularning

¹⁰Суворов Л.Н., Аверин А.Н. Социальное управление. Опыт философского анализа. - М.: Мысль, 1984. -С. 17

faoliyatini optimallashtirishga, muammolarni hal qilishda sa'y-harakatlarning birligi va muvofiqligini ta'minlashga qaratilgan faoliyatini oladi.

Dissertatsiyada ijtimoiy boshqaruv ham jarayon, ham funktsiya sifatida tavsiflangan. Boshqaruvga jarayon sifatida yondashuv boshqaruv muammolarini hal qilish bo'yicha barcha faoliyat turlarini birlashtirishga, boshqaruv funktsiyalarini o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqishga intilishni aks ettiradi. Boshqaruv o'tmish bilan determinatsiyalangan va hozirgi zamon hamda kelajakni belgilaydigan jarayon sifatida taqdim etilishi mumkin va lozim¹¹. Bunda determinatsiya deganda faol, yo'naltirilgan xarakterga ega bo'lgan aloqa tushuniladi. Har bir boshqaruv vaziyatida determinatsiyani hisobga olish zarur, chunki u bevosita bo'lmasa ham, har qanday boshqaruv harakatida bilvosita ishtirok etadi. Boshqaruv ko'p o'lchovli va ijtimoiy jarayon sifatida bo'lingan va bog'langan; bu o'zaro bog'liq faoliyatlar tizimidir.

Boshqaruv va o'z-o'zini boshqarish – bu tizimga tayyor holda tashqaridan “keladigan” tashqi ta'sir, o'z-o'zini boshqarish esa tizimning o'zi tomonidan ishlab chiqariladigan ichki ta'sirdir. Ichki va tashqi muhitning tez o'zgarishi ularning uyg'unligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Boshqaruvning umumiy globallasuvi va tarmoq tuzilmalarining shakllanishi doirasida ichki boshqaruvni (o'zini o'zi boshqarishni) samarali tashkil etmagan har qanday tashkilot inqiroz holatiga tushib qoladi.

Dissertatsiyada boshqarishning turli xil modellari tadqiq etilgan. Rivojlantirilishi lozim bo'lgan va ayni paytda uning manbai hisoblangan markaziy bo'g'inni (texnik resurslar, tashkilotning muhim jihatlari, tashkilot va shaxs qadriyatlari, shaxs resurslari) aniqlash asosida tashkiliy rivojlanish konsepsiyalarining quyidagi guruhlar ajratib olingan va tavsiflangan: texnokratik, ijtimoiy-texnik, qadriyatli, shaxsga yo'naltirilgan. *Texnokratik modellar* tashkilotning moddiy resurslarini rivojlantirishga tayanadi. Rivojlanishda moddiy bazaning rolini tushungan holda, ta'kidlash joizki, zamonaviy tashkilotning ustuvor yo'nalishlari, uning maqsadlari va falsafasi rivojlanish uchun vosita sifatida ko'riladi. Zamonaviy tashkilotlar nazariyasida ko'proq maqbullashtirilgan modellar tashkilotning ijtimoiy-texnik tizim sifatida faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishi omillari bilan bog'liq tashkiliy o'zgarishlarning manbai hisoblanadi.

Tashkilot rivojlanishini boshqarishning *ijtimoiy-texnik modellari* orasida tashkilotning hayotiy sikllari nazariyasi, tashkiliy rivojlanish nazariyasi, innovatsion modellar, tasodifiy transformatsiyalar nazariyasi, noinstitutSIONal yondashuv, fenomenologik konsepsiya, seleksiya modeli, tarkibiy-vaziyatli, tarmoq tashkilotlari modeli, sinergetik va boshqalarni alohida ta'kidlash lozim.

Innovatsion modellarda tashkilotning rivojlanishi oqilona rejalashtirilgan, ongli ravishda yuzaga keltirilgan va nazorat qilinadigan tarkibiy o'zgarishlar jarayoni sifatida qaraladi. Tashkilot yangiliklarni joriy etish nuqtai nazaridan yangi vazifalarni hal qilish uchun doimiy ravishda qayta quriladigan tizim sifatida ko'rib chiqiladi.

¹¹ Dimock M. Philosophy of administration. - N.Y., 1995. –P.120.

Fenomenologik modelda harakat rejalashtirishdan oldin keladi, deb hisoblagan K.Weykning g'oyalari tayanch nuqta hisoblanadi¹². Noaniqlik tashkilotning o'rganish va moslashish qobiliyatini oldindan belgilaydigan shartdir. Menejerlar o'tmishdagi voqealarni nusxalash va takrorlashga va shu bilan kelajakdagi voqealarni bashorat qilinadigan va nazorat qilinadigan qilishga harakat qilishadi. Boshqaruv ma'lum bir vaziyatni majburlashdir.

Tashkiliy rivojlanishning *seleksiya modeli* ikkita variant bilan ifodalanadi¹³, ulardan dastlabkisi - fokus-seleksiya yoki evolyusion. Evolyusion modelga muvofiq, birinchi fazada rivojlanish yangi vaziyatda ilgari ishlab chiqilgan namunalardan foydalana olmaslik bilan bog'lanadi. Bu vaziyat o'zgarishiga javoban yangi strategiya, yangi xulq-atvor reaksiyasini yaratish zaruratini tug'diradi. Tashkilotni o'zgartirish fondi tashkil etiladi. Keyingi - seleksiya bosqichida tashkilotning atrof-muhit bilan samarali o'zaro ta'sirini ta'minlaydigan namunalar tanlanadi.

Tuzilmaviy-vaziyatli model tashkilotlardagi o'zgarishlar jarayonini tashkilot va uning elementlari faoliyatining tuzilishi, yo'nalishlari va usullarini o'ziga xos vaziyat sharoitida dinamik ichki muhit holatining o'zgarishlariga ongli ravishda moslashtirish mahsuli sifatida tavsiflaydi¹⁴. Modelga ko'ra, moslashishning asosiy mexanizmi tashkilot elementlarining tashqi muhit holatiga passiv moslashuvi, muhit o'zgarishlarini qayd etish va unga yetarlicha javob berishdir. Javob tashki muhitning o'zgarishiga nisbatan tashkilot strukturasining o'zgarishini nazarda tutadi.

O'z-o'zini tashkil etish nazariyasi (sinergetika) bo'yicha ishlarni tahlil qilish asosida rivojlanishni boshqarishning sinergetik modelini alohida ahamiyat ksb etadi¹⁵. Murakkab tashkil etilgan tizimlarga ularning ichki ehtiyojlari bilan belgilanmagan rivojlanish yo'llarini majburan qabul qildirish mumkin emas. Samarali rivojlanish imkoniyati tasodif bilan ham belgilanishi mumkin, shuning uchun muvaffaqiyat ko'p jihatdan rahbarning qulay vaziyatni qo'ldan boy bermaslik qobiliyatiga bog'liq.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, zamonaviy tashkiliy rivojlanish konsepsiyalarida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning ustuvorligi, ayniqsa, motivatsion va transformatsion yetakchilik modellari orqali aks etmoqda. Bu yondashuv insonni tashkilotning asosiy markazi sifatida talqin etib, uning intellektual va ruhiy salohiyatini rivojlantirish orqali institutning o'zini ham yangilashga xizmat qiladi. Bunda yetakchilik kompetensiyalari rahbar va subyektlarning ongli transformatsiyasi hamda o'zaro ta'sir jarayonida ochiladi va takomillashadi. Rivojlanishni boshqarish modelini tanlash turli omillarga, xususan, tashkilotning ichki muhitiga ta'sir ko'rsatadigan tashqi omillarga bog'liq. Tashkiliy o'zgarishlar tashqi muhit ta'siri tufayli o'z-o'zidan muqarrar bo'lib, uning holatini

¹² Karl E. Weick. Making Sense of the Organization. Malden, MA.: Oxford Blackwell, 2001. – P.240.

¹³ Щербина В. В. Популяционно-селекционная модель организационного развития: содержание, сфера и перспективы применения // Социологические исследования. – Москва, 2015. – № 8. – С. 100-108.

¹³ Щербина В.В., Попова Е.П. Современные концепции структурных изменений в организациях // Социс. – Москва, 1996. – № 1. – С.100.

¹⁵ Николис Г., Пригожин И. Познание сложного. — М., 1990. – С.344.

doimiy ravishda kuzatib borish tashkilot samaradorligi va raqobatbardoshligining muhim shartlaridan biridir.

Dissertasiyaning uchinchi bobi **“Boshqaruv amaliyoti va qaror qabul qilishning o‘zaro aloqadorligi”** deb nomlangan bo‘lib, mazkur bobda boshqaruv amaliyotida qaror qabul qilishning tarkibiy bosqichlari va uning funksiyalari hamda qaror qabul qilish jarayonining ijtimoiy xususiyatlari ochib berilgan.

Boshqaruv funksiyasi - bu boshqaruv faoliyatining nisbatan mustaqil sohasi bo‘lib, u ma’lum bir mazmun birligiga ega va boshqaruv sohasidagi mehnat taqsimoti hamda ixtisoslashuvning mahsuli hisoblanadi. Boshqaruv sub’ekting boshqaruv siklining ketma-ket almashinib turadigan bosqichlariga mos keladigan harakatlari boshqaruv funksiyalarini, bu funksiyalarning yig‘indisi esa boshqaruv jarayonining mazmunini anglatadi¹⁶. Bunday funksiyalar: *boshqaruv qarorini ishlab chiqish va qabul qilish, tashkil etish, tartibga solish, tuzatish, hisobga olish va nazoratdan iborat.*

Tadqiqotchining ta’kidlashicha, boshqaruvda qaror qabul qilish jarayoni alohida o‘rin tutadi, u o‘z navbatida *gnoseologik, prognostik, regulativ, maqsadni belgilash, yo‘naltiruvchi, ijtimoiy, siyosiy, mafkuraviy* funksiyalarida ifodalanadi. Bularning barchasi qaror qabul qilish jarayoni funksiyalarining shakliy tomonini ham, ijtimoiy munosabatlar va boshqaruv tizimida qaror qabul qilish talqin qilishni nazarda tutuvchi mazmuniy tomonini taqozo etadi. Bundan tashqari, qaror qabul qilish jarayonining funksional aniqligini o‘rganish boshqaruvning umumiy jarayonini ham ko‘rib chiqishni talab etadi. Shakliy jihatdan, qaror qabul qilish jarayonining tarkibiy xususiyatlarini aks ettiruvchi funksional aniqlik, birinchi navbatda, kognitiv va tartibga solish funksiyalari bilan belgilanadi.

